

## MAKTABGACHA TA`LIMDA ISLOHOTLAR VA INNOVATSION METODLAR

*Maftuna Xayrullayeva Ma’rupovna  
Samarqand viloyati, Payariq tumani 20-DMTT tarbiyachisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta`lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, innovatsion metodlar hamda ixtisoslashgan kadrlar tayyorlash, ilg`or pedagogik usul va uslublarni ishlab chiqish va shu kabi mavzular ko`rib chiqiladi

**Kalit so`zlar:** “Ilk qadam”, rivojlantirish konsepsiysi, , ta`lim samaradorligini oshirish, preferensiyalar, , moddiy-texnik

### KIRISH

Maktabgacha ta`limni sifat bosqichiga ko`tarishda yangi ta`lim metodlari, innovatsion texnologiyalarning ahamiyati katta. Sababi maktabgacha ta`lim tashkilotining moddiy-texnik bazasi yuqori bo`lsa-yu, tarbiyachi bola bilan ishlamasa, unga har kuni yangi ma`lumotlarni o`rgatmasa, hamma qilingan harakatlar natijasi nolga tenglashib qoladi. Sohadagi mutaxassislar mahoratini oshirish, ularga zaruriy metodik ko`mak berish maqsadida Maktabgacha ta`lim muassasalari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti tashkil etildi. Maktabgacha ta`lim sohasiga malakali kadrlar tayyorlash masalasiga alohida e`tibor qaratildi. Qabul qilinayotgan barcha qarorlarni amalga oshiradigan, farzandlarimizga eng zarur hayotiy tushuncha va ko`nikmalarni o`rgatadigan yuqori malakali tarbiyachilarni tayyorlash masalasi kun tartibiga chiqdi. Bu sohada zamonaviy talablarga javob beradigan ilg`or pedagogik usul va uslublarni ishlab chiqish, o`quv va o`quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodini yaratish va nashr etish ham dolzarb vazifa edi. O`zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagи bolalarning rivojlanishiga qo`yiladigan Davlat talablari va “Ilk qadam” maktabgacha ta`lim muassasasining Davlat o`quv dasturi qabul qilindi. Endilikda zamonaviy maktabgacha ta`lim tashkilotining tarbiyachilari bolalarni erkin qo`yan holda faollik markazlarida o`yin mashg`ulotlari orqali yangi ma`lumotlarni o`rgatmoqda.

Maktabgacha ta`lim tizimida oliy ma`lumotli mutaxassislarga ehtiyoj esa pedagogika universitetlarida maktabgacha ta`lim yo`nalishiga qabul kvotalarining oshirilishi va nomutaxassis kadrlarni qayta tayyorlovdan o`tkazish evaziga to`ldirilmoqda. Ilg`or xorijiy tajribalar asosida maktabgacha ta`lim tizimidagi pedagog kadrlar malakasini oshirish bo`yicha o`quv-reja va dasturlarni takomillashtirish, oliy ta`lim muassasalari maxsus sirtqi bo`limlarining “Maktabgacha ta`lim” yo`nalishi bo`yicha 2018—2023-yillar uchun kvotalar ajratish masalasiga e`tibor qaratildi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bugungi kun tarbiyachisi kasbiy mahoratini doimiy tarzda oshirib borishi, ilg`or pedagogik texnologiyalarning izchil metodlari mohiyatini to`liq anglashi va ulardan mashg`ulotlarida mohirona foydalanishi zarur. Ta`lim jarayonida ilg`or pedagogik texnologiyalarni faol qo`llash, ta`lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyatga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Tarbiyalanuvchilarining ongi, dunyoqarashini o`stirish, ularni mashg`ulotlarda erkin fikrlaydigan erkin ishtirokchiga aylantirish nihoyatda muhimdir. Tarbiyachi mashg`ulotda boshqaruvchi, bolalar esa ishtirokchiga aylanmog`i lozim. Ana shu vazifani uddalashda innovatsion faoliyat ustunligi samaralidir. Maktabgacha ta`limda ko`proq bolalarning yoshi, fiziologik holatini hisobga olish lozim. Oddiy, oson va kam vaqt sarflanadigan o`yin mashqlaridan foydalanib, faollik markazlarida ish olib borish yaxshi samara beradi. Ko`proq atrof-muhit bilan bog`lab o`tilgan mashg`ulotlar bolalar ongi, dunyoqarashini, erkin fikrlash, bayon etish qobiliyatlarini, mustaqil ishslash ko`nikmasini, ya`ni hayotiy kompetensiyasini rivojlantiradi.

## NATIJA

Avvallari xususiy bog`cha degan nomning o`zi odamlarni biroz o`zidan itarardi. Chunki davlat bog`chasi bilan xususiy bog`cha narxi o`rtasidagi tafovut keskin farqlanar, bunday ta`lim tashkilotiga moddiy jihatdan boy oilalar farzandlari borishi kerak degan tushuncha shakllangan edi. Bu qarash bugun biroz bo`lsada o`zgardi. Sababi nodavlat maktabgacha ta`lim muassasalari tarmog`ini kengaytirish borasida olib borilayotgan sa'y-harakatlar evaziga bugun yurtimizda nodavlat maktabgacha ta`lim tashkilotlari soni keskin ortdi. Bugungi kunda maktabgacha ta`lim muassasalari tarmog`ini kengaytirish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yangi bog`chalar qurish bo`yicha davlat dasturi qabul qilinib, amalga oshirilmoqda. Bu esa tizimda sog`lom raqobatni shakllantirish hamda ta`lim xizmatlari turini ko`paytirishga xizmat qiladi. Investorlar tashkil etilayotgan maktabgacha ta`lim muassasalarida davlat ta`lim talablariga, sanitariya-gigiyena va boshqa normalarga rioya qilish, kelishuv amal qilishining butun muddati davomida faoliyat yo`nalishini saqlab qolish, shuningdek, maktabgacha ta`lim xizmatini ko`rsatish narxining maqbulligi va arzonligini ta`minlash uchun mas`ul bo`lishi nazarda tutilmoqda. Bunda investorlarga preferensiylar, shuningdek, imtiyozli kreditlar taqdim etilmoqda.

## MUHOKAMA

Maktabgacha ta`lim tizimini tanqidiy o`rganish va yanada takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish bo`yicha komissiya tashkil etildi. Komissiya tomonidan maktabgacha ta`lim sohasidagi qonunchilik undagi bo`sliqlar, korrupsiya va boshqa huquqburzaliklarni yuzaga keltiruvchi normalarni aniqlash nuqtayı nazaridan tahlil etildi. Shuningdek, maktabgacha ta`lim sohasida davlat siyosatini samarali ro`yogha chiqarishga to`sinqilik qiluvchi tizimli muammolarni aniqlash

hamda kompleks o‘rganish ishlari amalga oshirildi. Shunga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi ishlab chiqilib, uni amalga oshirishni ko‘zlovchi “Yo‘l xaritasi”da 2019—2024 va 2025—2030-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari belgilandi.

Konsepsiya o‘rta va uzoq muddatli istiqbol uchun maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish maqsadlari, vazifalari, ustuvorliklari va bosqichlarini belgilab berdi.O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi maktabgacha ta’lim sohasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo‘ladi. Hujjat malakali pedagog kadrlar yetishmovchiligi, davlat MTTlarining to‘lib ketganligi, moddiy-texnik holatining nomuvofiqligi hamda davlat o‘quv-metodik materiallari bilan past darajada ta’minlanganligi muammolarining hal etilishini nazarda tutadi.

Xususan, 2030-yilgacha maktabgacha ta’lim bilan qamrab olingan bolalar miqdorini joriy 38,1 foizdan 80,8 foizgacha orttirish vazifasi qo‘yilgan. Shu bilan birga, MTV tomonidan ta’lim muassasalari quvvatlarining kuchaytirilishi davom ettiriladi: 2021-yilga kelib o‘rinlar miqdori yangi MTMlarni ochish hisobiga 56,8 foizga (2030-yilga kelib — 132,3 foizga) ortadi, hamda davlat-xususiy sherikligi va respublikaning chekka tumanlari uchun dolzarb muqobil maktabgacha ta’lim shakllari rivojlantiriladi.

## XULOSA

Keyingi yillarda pedagogik va boshqaruv kadrlariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ishlar ikki yo‘nalishda olib boriladi: pedagoglar miqdorini orttirish va maktabgacha ta’lim tizimi xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish va rivojlantirishda yangi yondashuvlarni tatbiq etish. Konsepsiya bilan belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlar respublika miqyosidan viloyat, tuman va shahar darajasigacha tushadi hamda ushbu natijalarga erishish uchun qay miqdorda mablag‘larining zarurligi to‘g‘risidagi hisob-kitoblar bilan asoslanadi.

## ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida qarori PQ-4312 08.05.2019
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida ta’lim olish ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risidagi qarori -4860 13.10.202
3. Vinogradova N.A., Miklyaeva N.V., Tolstikova Yu.V. va hokazo. Maktabgacha ta’lim ta’lim. Terminlar lug‘ati / - M .: Ayris-press, 2005 .-- 400 b. - (Maktabgacha ta’lim va rivojlanish).
4. Novikova G.P. Zamonaviy maktabgacha ta’limni boshqarish shartlar: Maktabgacha ta’lim muassasasi rahbari uchun qo’llanma. - M .: Ventana-Graf, 2007 .-- 80 b. - (Kutubxona bolalar bog’chasi).
4. Troyan A.N. Maktabgacha ta’limni boshqarish: darslik. - M .: Sfera TC, 2005 .-- 160 b. (Qo’llanma)